

O'Z YURTIGA SIG'MAY KETGAN BOBUR BOBOM

Uralova Gulmira Salim qizi

JDFU talabasi

Email:urolovagulmira4@gmail.com

Yulduz chaqnab, oy to'lmagan tunlarida,
Sarson bo'lib, shoh bo'lsada, topmay orom.
Sog'inch dilin o'rtayverib kunlarida,
O'z yurtiga sig'may ketgan, Bobur bobom.
Vafo dedi jafolarga ko'mdi olam,
Gohi ochiq, gohi berkdir darvozalar.
Tuhmatlari haddan oshdi qildi alam,
Xiyonatkor, qo'rqqoq dedi ovozar.
Yosh joniga armonlardan qalban tolib,
Musofirlik zardalari qo'ymay omon.
Samarqand-u Andijondan ko'zin olib,
Ko'ngil olib ketolmagan, nodir bobom.
Kimsalarga dardlarini aytolmayin,
Bu dard emas tarix dedi, tutdi qalam.
Sog'insada vataniga qaytolmayin,
O'z yurtidan yig'lab ketgan shoir bobom.
O'zga yurtni yurt tutmoqlik, bõlmay oson,
O'zga havo dimoqlarda qoldi mudom.
Yildek mushkul har bir lahza har bitta on,
Sabrlardan koshin qurgan, qobil bobom.
Shior bo'ldi, Temur so'zi: "rosti rasti",
Yurt qayg'usi bedor qildi kunduz oqshom.
Tiz cho'ktirmas, nonkòr bõlgan Bayda qasti,
Dushmanga ham saxiy bõlgan, odil podshom.
O'ylamangiz bu hammasi ixtiyormas,
Yurtdan ketgan hech bir banda baxtiyormas,
Jism-u tani uzoqlarga ko'chsa hamki
Bobur ruhi o'z elidan ketolganmas!

("Yulduzli tunlar" Romani asosida yozildi)